

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**

**2018 yil yanvar-iyun oyida viloyatda bajarilgan**

**QURILISH ISHLARI**

**KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari  
hajmi – 1084.0 mlrd.so 'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
tashkilotlari ulushi – 2.5 foiz*


*Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi – 59.8  
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi  
– 37.7 foiz*

2018 yilning yanvar-iyun oyi bo'yicha viloyatda 1084,0 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 1.0 foiz punktga kamaydi.


Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 26.7 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 72.2 foizni tashkil etdi.


Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 26.7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 72,2 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 17,4 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 91,9 foizni tashkil etdi. Jalaququq, Ulug'nor va Qo'rgontepa tumanlaridagi yirik korxonalar tomonidan jami 9.3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 67.3 foizga teng bo'ldi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 59,8 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.

## 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da





Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1064,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,2 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foiz punktga o'sdi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 409,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 107,8 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 269,2 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 115,6 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 24,3 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika  
qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37*